

Ratsionalizatorlik

Ratsionalizatorlik — texnika vositalari, i.ch. texnologiyasi, mashina detallari, tayyor mahsulot va boshqalarni takomillashtirishga doir yangi texnik yechimlar hamda takliflarni ishlab chiqish bilan shugʻullanish. R.ning ixtirochilikdan farqi (qarang ixtiro) shundaki, u muayyan ishlab chiqarish, korxonalar bilan, bironbir texnologiya, mashina va qurilmaga yangilik kiritish bilan bogʻliq boʻladi, R. aniq bir mashina, texnologik jarayon,

detal va boshqalarni takomillashtirishga, ish unumdorligini oshirishga, ishlab chiqariladigan mahsulot sifatini yaxshilashga qaratiladi. Masalan, paxta terish mashinasining asosiy paxta terish organi – shpindelini takomillashtirishga doir taklif R. taklifi hisoblanadi. R. taklifi berish shartlari, uni muhofaza qilish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan 1994-yil qabul qilingan qonunda belgilab qo‘yilgan. R. uchun guvohnoma berish ishlari O‘zbekiston Respublikasi patent idorasi tomonidan amalga oshiriladi

Yana qarang

- Ixtirochilik huquqi^[1].

Manbalar

1. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

*Ko'proq o'rganish Ushbu maqolada
O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005) ma'lumotlaridan foydalanilgan.*

Ushbu maqola chaladir. Siz uni boyitib, (<https://uz.wikipedia.org/w/index.php?title=Ratsionalizatorlik&action=edit>)

Vikipediyaga yordam berishingiz mumkin.

Bu andozani aniqrog'iga almashtirish kerak.

"<https://uz.wikipedia.org/w/index.php?title=Ratsionalizatorlik&oldid=3682835>" dan olindi

VIKIPEDIYA

Bu sahifa oxirgi marta 1-May 2023, 18:48 da tahrir qilingan. •

Matndan [CC BY-SA 3.0](#) litsenziyasi bo'yicha foydalanish mumkin (agar aksi ko'rsatilmagan bo'lsa).